# O‘zbekiston – Koreya: ilmiy aloqalar rivoji yo‘lida

O‘zR FA Botanika instituti direktori professor X.F.Shomurodov, “O‘zbekiston florasi” laboratoriyasi mudiri akademik K.Sh.Tojibayevlar Janubiy Koreyaning Data Strategy Center (DRB International Co., Ltd.) direktori Kim Joonsung va menejer Shin Jong  bilan uchrashdi.





Data Strategy Center (DRB International Co., Ltd.) direktori Kim Joonsung O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida ijobiy o‘zgarishlar bo‘layotganligini, tadbirkorlar davlat tomonidan muntazam, tizimli qo‘llab-quvvatlanayotganligi, chet ellik investorlarga qulay sharoit yaratilayotganligi sababli investorlarning ishonchi tobora ortib, investitsiyaviy muhit yanada yaxshilanayotgani aytib o‘tdi va O‘zbekiston florasida uchraydigan ayrim kauchuk saqlaydigan o‘simlik turlaridan tabiiy kauchuk mahsulotini olish, kauchuk manbasi bo‘la oladigan o‘simlik turlarini yetishtirish bo‘yicha ma’lumot so‘radi.

Uchrashuvda akademik K.Sh.Tojibayev O‘zbekiston florasida tarqalgan, yer ostki organlarida tabiiy kauchuk saqlaydigan o‘simliklardan *Scorzonera uzbekistanica Czevr. & Bondarenko* turini dala sharoitida ko‘paytirib xom ashyo yetishtirish masalalari haqida fikr bildirdi. *Scorzonera uzbekistanica Czevr. & Bondarenko* o‘simligini tarqalish areali, o‘sish sharoiti, bioekologik xususiyatlari va yetishtirish mumkin bo‘lgan hududlar haqida batafsil ma’lumot berdi. Bajarilishi kutilayotgan loyihani amalga oshirishda Botanika instituti olimlarining ilmiy salohiyati, malakasi, tajribasi yetarli darajada ekanligini alohida ta’kidladi.

Suhbat davomida har bir masala yuzasidan yechimlar topilib, amalga oshirish mexanizmi kelishib olindi. Kelgusida bajarilishi kutilayotgan loyihadan har ikkala tomon ham manfaatdor ekanligi bildirildi.